



JINOYAT PROTSESSIDA SUDLOVGA TEGISHLILIK VA UNING HUQUQIY MOHIYATI: XALQARO HAMDA MILLIY HUQUQIY ASOS

Pulatov Dilshod Qahramon og'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy

huquq fakulteti 3-kurs talabasi.

+998993195764 Email: dilshodpolatov95@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08- November 2023 yil

Ma'qullandi: 10- November 2023 yil

Nashr qilindi: 15-November 2023 yil

KEY WORDS

Sud tizimi, yurisdiksiya, jinoyat, tegishlilik, harbiy sud, turdosh yoki predmetli tegishlilik, jinoyatchi shaxsiga ko'ra tegishlilik, hududiylikka ko'ra tegishlilik, mustasno tegishlilik

ABSTRACT

Ushbu maqolada jinoyat ishlarining sudlovga tegishlilik, xususan sudlovga tegishlilik tushunchasi va uning ahamiyati ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, jinoyat ishlarining sudlovga tegishlilik deganda jinoyat protsessual qonuni bilan jinoyat ishini u yoki bu sudda mazmunan ko'rilishini belgilovchi yuridik xususiyat tushunilishini, bu xususiyatga ko'ra jinoyat ishini qaysi sudga tegishli ekanligi va yagona sud tizimi ichida sudlar o'rtasidagi vakolatlar belgilanishini qayd etgan. Bundan tashqari maqolada sudlovga tegishlilikning turlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Xalqaro tajriba misolida Germaniya va Angliya(Uels) sud tizimidagi o'ziga xos jihatlar qisqacha to'xtalib o'tilgan

Barchamizga ma'lumki mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish, odil sudlovning sifat va samaradorligini oshirish, sudlarning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, sud idorasiga ishi tushgan har bir inson ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonishi kerak. So'nggi yillarda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar ushbu tizim faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga, odamlarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilyapti. Sohaga oid jadallashgan sa'y-harakatlar Prezidentimizning tashabbusi va alohida nazorati doirasida kechayotgani barchamizni quvontirmoqda. Zero, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish, qonunlar ustuvorligi g'oyasini hayotga tatbiq etishni ta'minlovchi asosiy mexanizm bo'lmish mustaqil sud hokimiyatini shakllantirish va takomillashtirish O'zbekistonda davlat tomonidan olib borilayotgan huquqiy siyosatning tamal toshi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga muvofiq jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.¹[1 Shuningdek, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 6-moddasi²[2] hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 14-moddasiga³[3] muvofiq, har kim qonun va sud oldida tengdir; har kim o'zining fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilashda yoki unga qo'yilgan har qanday jinoiy ayblovni qonunda belgilangan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan oqilona vaqt ichida adolatli ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

Jinoyat ishlarining sudga tegishliligi jinoiy odil sudlovni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ularni ko'rib chiqilishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat ishlarining sudlovga tegishliligi deganda jinoyat protsessual qonuni bilan jinoyat ishini u yoki bu sudda mazmunan ko'rilishini belgilovchi yuridik xususiyat tushiniladi. Bu xususiyatga ko'ra jinoyat ishini qaysi sudga tegishli ekanligi va yagona sud tizimi ichida sudlar o'rtasidagi vakolatlar belgilanadi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Jahonda sudlar faoliyatida, xususan, protsessual huquq nazariyasi va amaliyotida taalluqlilik instituti va uni belgilash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda nizolarning aynan qaysi sudlar tomonidan ko'rib hal qilinishi hamda nizolarni sudga qadar hal qilish vakolati berilgan organlarning ishni ko'rish usullari va tartibini o'rganish muhim o'rin tutadi. Sudlovga tegishlilik ikki xil ma'noda tushiniladi. Sudlovga tegishlilik ikki xil ma'noda tushiniladi:

-birinchida, ayrim jinoyat ishlarining ko'rilishi va hal qilinishi sud organlariga taalluqli(tegishli) bo'lishligini anglatadi;

-ikkinchidan sudlovga tegishlilik yagona sud tizimiga kiradigan umumiy yurisdiksiya sudlarining qaysi biri muayyan jinoyat ishini ko'rish va hal qilishga huquqli bo'lishini bildiradi. Binobarin, sud organlarining vakolatiga kiradigan jinoyat ishlarini o'z ichiga oladi. Jinoyat ishlarining doirasi jinoyat protsessual qonuniga ko'ra belgilanadi. Jinoyat ishining qaysi sudga taalluqliligini belgilash mazmunan ko'rib hal qilinishi lozim bo'lgan jinoyat ishining turiga bog'liq. Mutaxassislar bu borada sudlovga tegishlilikning quyidagi bir nechta turlarini farqlashadi:

- turdosh yoki predmetli;
- jinoyatchi shaxsiga ko'ra;
- hududiylikka ko'ra tegishlilik;
- mustasno tegishlilik⁴[4]

Turdosh yoki predmetli sudlovga tegishlilik deb ishning turi yoki xarakteriga qarab har xil turdagi sudlarga jinoyat ishlarining tegishli bo'lishligi tushuniladi. Bu sudlovga tegishlilikni belgilashda jinoiy ish turi, jinoyatning predmeti nimadan iborat bo'lishi va jinoyat subyektlari kimlar bo'lishiga ham qaraladi. Turdosh sudlovga tegishlilik bo'yicha yagona sud tizimidagi har turli sudlar o'rtasidagi vakolatga ajratadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudlariga tegishli ishlar o'z mazmuni bilan bir xil bo'lib, jinoyat protsessual qonuni bilan alohida belgilanadi. Shunga asosan jinoyat-protsessual kodeksining 389-moddasining 3 va 4 qismlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyat, Toshkent shahar sudining yoki O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudloviga o'ta

² <https://digitallibrary.un.org/record/520824?ln=ru> Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, as Amended by Protocol No. 11 (1950)

³ <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

⁴ О.Б.Порцева. Подсудность уголовных дел. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Ижевск. 2004. – С.14.

murakkab va ahamiyatli ishlar tegishlidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi jinoyat ishini, agar u mazmunan o'ta murakkab va ahamiyatli bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyat, Toshkent shahar sudiga, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga ko'rish uchun topshirishga haqli. Jinoyat protsessual kodeksining 390-moddasiga muvofiq yuqori sud quyi sud sudloviga tegishli har qanday jinoyat ishini birinchi instansiya sudi tariqasida o'zi ko'rish uchun olishga haqlidir. Bunda yuqori sudlar jinoyat-protsessual qonunida belgilangan o'zlariga tegishli jinoyat ishlaridan tashqari ushbu vakolatni amalga oshiradi.

Jinoyatchi shaxsiga ko'ra sudlovga tegishlilik tasnifi xususida so'z yuritganda harbiylarga nisbatan shaxsiga ko'ra sudlovga tegishlilik qo'llanilishini misol qilish mumkin. Shu sababdan ham harbiylarning jinoyat ishlari maxsus harbiy sudlar sudlovida ko'rib chiqiladi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan harbiy sudlarning sudloviga tegishli ishlar predmeti belgisi bo'yicha ajratilmaydi. Murakkab bo'lgan jinoyat ishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi harbiy hay'atining sudloviga tegishli bo'ladi. Harbiy sudlar sudloviga tegishliligining hududiy belgisi cheklangan holda amal qiladi.⁵[5] Bu boradagi sudlovga tegishlilik sudlovga tegishlilik sudlovga tegishlilikning muayyan harbiy qism, garnizon, qo'shilmalarga taalluqliligi bilan aniqlanadi. Harbiy xizmatchilarga taalluqli ishlarning har xil darajasi harbiy sudlarning sudlovga tegishliligi shaxsiy belgisi bo'yicha ajratiladi.

Qonun jinoyat ishining hududiy jihatdan sudlovga tegishliligini ham belgilab muayyan hududda ko'rilishini nazarda tutadi. Hududiy jihatdan sudlovga tegishlilik jinoyat ishlarining hududiy belgisiga ko'ra jinoyatning qayerda sodir bo'lganiga qarab belgilanadi. Masalan, jinoyat ishi qaysi hududda sodir etilgan bo'lsa, shu hududda faoliyat yuritayotgan sudning sudloviga tegishli bo'ladi. Jinoyat ishining jinoyat sodir bo'lgan joyda ko'rilishi ko'pchilik guvohlar va jabrlanganlarni chaqirishni osonlashtiradi. Bu esa ularning ishtirok etishiga va tegishli dalillarni ta'minlaydi. Sudyalarning tayinlab qo'yilgan joyida ishni ko'rib hal qilishlari odil sudlov faoliyatida ham muhim o'rin tutadi va sudning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi. ⁶[6] Ayrim hollarda jinoyat qayerda sodir etilganligini aniqlash mumkin bo'lmaydi. Bunday hollarda Jinoyat protsessual kodeksining 391-moddasiga 2-qismiga muvofiq ushbu ish dastlabki tergov yoki surishtiruv tamom bo'lgan hududdagi sud tomonidan ko'riladi. Bir qancha jinoyat sodir etish o'z xususiyati va ahamiyatiga ko'ra, alohida sodir qilinadigan – davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlardan farqlanadi. Ma'lumki, davomli jinoyat deb yagona qasd bilan qamrab olingan bitta jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi jinoyat ob'ektiv tomon harakatlarini bo'lib-bo'lib bajarishda ifodalanadigan jinoyat turiga aytiladi. Odatda, ushbu jinoyat turida shaxs sodir etishni istagan yagona jinoyatini tashqi tomonini ifodalovchi harakatlarni turli vaqtlarda bo'lib-bo'lib bajarishi tushuniladi. Uzoqqa cho'zilgan jinoyat deb esa jinoyat qonuni orqali jinoiy jazo qo'llash tahdidi bilan aybdorga yuklatilgan vazifalarning uzoq vaqt mobaynida bajarilmasligidan iborat bo'lgan qilmishi tushuniladi. ⁷[7] Ko'pincha uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar harakatsizlik orqali sodir etiladigan qilmish bo'lib, shaxs o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni uzoq vaqt mobaynida bajarilmasligida ifodalanadigan passiv xulq-atvorida ifodalanadi. Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarda ham

⁵ Jinoyat protsessi: maxsus qism: Z.F.Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida-TDYI nashriyoti, 2008. 359 bet.

⁶ https://zakovat.ucoz.ru/jinoya protsessual huquqi/darslik_8_mavzu.pdf

⁷ Очиллов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов З.З. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2021. – Б.73.

shaxsning harakatlari bitta ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanib, JK Maxsus qismning bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bu turdagi jinoyatlarda ham jinoiy harakat yoki harakatsizlik to'xtatilgan paytdan boshlab, qilmish tugallangan jinoyat deb topiladi. Xuddi shunday uzoqqa cho'zilgan yoki davomli jinoyatlarga doir ishlar jinoyat qaysi hududda tamomlangan yoki to'xtatilgan bo'lsa, shu hududdagi sudning sudloviga tegishli bo'ladi.

Ba'zi jinoyat ishlarining turlariga nisbatan ularning xususiyatlarini e'tiborga olib, faqat muayyan sudga tegishli bo'lishini belgilanishi mustasno sudlovga tegishlilik deyiladi.⁸[8] Mustasno sudlovga tegishlilik haqida so'z yuritir ekan, avvalo shuni ta'kidlash joizki, qonunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga qanday jinoyat ishlari tegishli bo'lishi ko'rsatilmagan, faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan jinoyat ishlarining jamoat uchun ahamiyatli bo'lishi va o'ra murakkab ishlarni malakali tekshirish talab qilish lozimligi ko'rsatilgan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi o'ta murakkab yoki muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni(turdosh yoki predmetli, shaxsiy, hududiy) tegishlilikiga qaramasdan o'zi ko'rish uchun chaqirtirib olishi mumkin. Bu turdagi sudlovlarga tegishli ishlar ikki manbadan olinadi.

- a) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yuborilgan ishlar;
- b) Quyi sudlardan chaqirtirib olingan ishlar

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan yuborilgan jinoyat ishini o'zi ko'rib hal qilishi majburiy emas. Bunday ishlarni lozim topganda o'zi ko'rmasdan tegishli bo'lishiga qarab boshqa o'zidan quyi sudlarga yuborishi mumkin. X.Xudayberdievning ta'kidlashicha, jinoyat-protsessual qonunida ko'rsatilgan jinoyat ishining sudlovga tegishlilikiga amal qilingan taqdirda quyidagilarga ya'ni, jinoyatlarning barcha holatlarini har tomonlama, chuqur ko'rib chiqishga, hukmning qonuniy, asosli, adolatli bo'lishiga, sudning esa ahamiyatini oshirishga erishiladi. Jinoyat ishlarining sudlovga tegishlilikining belgilanishi sudlar tomonidan qonuniy asosli adolatli hukm chiqarilishini ta'minlaydi.⁹[9]

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasida Jinoyat ishlari birlashtirilganda ularning sudlovga tegishlilik masalasi ham bor. Unga ko'ra bir necha shaxsni turli hududlarda sodir etgan jinoyatlari uchun ayblash to'g'risidagi jinoyat ishlari, shuningdek bir shaxsni bir necha jinoyatni sodir etishda ayblash to'g'risidagi jinoyat ishlari birlashtirilganda, agar bu ishlar bir xil darajadagi ikki yoki bir necha sudning sudloviga tegishli bo'lsa, ish dastlabki tergov yoki surishtiruv qaysi hududda tamomlangan bo'lsa, shu hududdagi sud tomonidan ko'riladi. Bir shaxs yoki bir guruh shaxslar turli darajadagi sudlarning sudloviga tegishli bir necha jinoyatni sodir etishda ayblangan bo'lsa, bunday ishlar yuqori sud tomonidan ko'riladi. Agar jinoyat ishi bo'yicha bir shaxs yoki bir guruh shaxslar bir necha jinoyatni sodir etishda ayblansalar va bu shaxslardan loaqal biri yoki jinoyatlardan biri haqidagi ish harbiy sudning sudloviga tegishli bo'lsa, barcha jinoyatlar va barcha shaxslarga doir ish harbiy sud tomonidan ko'riladi¹⁰.^[10] Biroq, qayd etish kerakki, jinoyat-protsessual normalar tahlili sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya qilmaslikning huquqiy oqibatlari qonunchilikda belgilanmaganligini ko'rsatadi. Ayrim

⁸ Уголовный процесс Республики Узбекистан. Учебник мири и Рахманкулов А. Х Кадырова. Академия МВД Республики Узбекистан 2004

⁹ Х.Худайбердиев. Жиноят ишларининг судловга тегишлилиги. Маърузалар тўплами. –Т.:, ТДЮИ. 2013. –Б.35.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460>

olimlarning ta'kidlashicha, bunday holat iqtisodiy sudlarda nizolarning taalluqliligi to'g'risidagi iqtisodiy-protsessual qonunchilikka ham xos.¹¹[11] Angliya va Uelsda yurisdiksiyalarga tegishli ishlarda umumiy huquq pozitsiyasi shundan iboratki, **Angliya va Uels** sudlari yurisdiksiyaga ega bo'lishi uchun jinoyat "ushbu yurisdiksiya bilan jiddiy bog'liqlik" bo'lishi kerak.¹²[12] Bundan kelib chiqadiki, agar jinoyatni tashkil etuvchi faoliyatning katta qismi Angliya va Uelsda sodir bo'lsa, Angliya va Uels sudlari yurisdiksiyaga ega. **Germaniya tajribasida** ko'radigan bo'lsak ushbu davlatdagi sud tizimi dunyodagi mustaqil davlatlar orasida sud tizimi eng yaxshi tashkil etilgan 15ta davlat sirasiga kiradi. Germaniya sud tizimi quyidagilarga bo'linadi: konstitutsiyaviy sudlar, umumiy sudlar (fuqarolik va jinoyat ishlari sudlarini o'z ichiga oladi), ma'muriy sudlar, mehnat sudlari, ijtimoiy sudlar, moliyaviy sudlar.¹³[13] Bularning barchasi shtat sudlari bo'lib, ular da'volar birinchi instantsiyada qo'zg'atiladigan yagona sudlardir.¹⁴[14] Aynan mana shu jihat, ya'ni Germaniyada tashkil etilgan murakkab tarmoqli va ixtisoslashtirilgan sudlar tizimi uning bugungi mavqei garovi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu davlatning sud tizimidan kelib chiqib, O'zbekistonda sud tarmoqlarini kengaytirish va ixtisoslashtirish hamda ishni ko'ri chiqayotgan sudya va uning maslahatchilarining mavqeyi hamda professional bilimiga qo'yiladigan talablar yanada oshirishni tadbqiq etishimiz mumkin. Mazkur islohotlar samarasida fuqarolarning sud-huquq tizimiga ishonchi ortib borishi shubhasiz.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jinoyat protsessida sudlovga tegishlilikning mazmun va mohiyati, uning jinoyat ishlari yurituvdagi ahamiyati va mazkur institutning boshqa jihatlari, xususan jinoyat ishlarini birlashtirganda va ajratilganda, yuqori sudlarning quyi sudlardan ishlarni talab qilishida tegishlilik kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Sudlovda tegishlilikning jinoyat protsessual qonuni tomonidan ochiq belgilanishi har bir sud tizimiga tegishli bo'lgan ishlarning aniq taqsimlanishiga yordam beradi. Bu esa sudlar o'rtasida ishlarni ko'rishda sarsongarchilikka yo'l qo'yilmasligi, yuqori sudlarga tegishli ishlarning quyi sudlar tomonidan ko'rilmassligini ta'minlaydi. Sudlovga tegishlilik haqida so'z yuritilganda, sud instansiyasi vakolatlariga kiradigan jinoyat ishlarining qonuniy, asosli, adolatli va mazmunan aniq ko'rinishi barcha sud instansiyalariga ko'p jihatdan bog'liq. Bunday fikrga kelinishiga jinoyat-protsessual qonunida ko'rsatilgan sudlovga tegishlilik yuridik atamasining qo'llanilishi tuman shahar sudlari sudloviga, viloyat sudlari sudloviga va Oliy sud sudloviga tegishli jinoyat ishlarining alohida belgilanishiga asos bo'ladi. Ya'ni, sudlovga tegishlilik jinoyatning xarakteriga ko'ra, malakalanishi bilan belgilanadi. Sudlovga tegishlilik faqat jinoyatning xarakteriga ko'ra belgilanibgina qolmay balki, jinoyat sodir etgan sub'ekt bilan ham belgilanadi. Masalan: harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar faqat harbiy sudlarning sudloviga tegishli bo'ladi. Umuman olganda Nemis siyosatchisi Xorst Zeehofer ta'kidlaganidek: "Davlat xizmatchilariga fuqarolarning munosabatlari har doim muhim masala hisoblanadi". Xurmatga ongli ravishda erishish murakkab bo'lgan vaziyatda majburlash chorasini ko'rish maqsadga muvofiq. Germaniyadagi kabi qonunlarga hurmat

¹¹ Салимова Ирода Мамаюсуфовна Иқтисодий низоларнинг тааллуқчилиги (назарий-ҳуқуқий ва процессуал жиҳатлари) Ҳуқуқий, илмий-амалий нашр. 2/2020. – Б.20.

¹² <https://www.cps.gov.uk/legal-guidance/jurisdiction>

¹³ <https://www.lawyersgermany.com/a-guide-to-german-courts>

¹⁴ https://e-justice.europa.eu/content_jurisdiction-85-de-maximizeMS_EJN-en.do?member=1

hissini yurtimizda ham fuqarolar ongiga singdira olsak, kelajak avlod, albatta yuqori darajada rivojlangan davlatning fuqarolari bo'la oladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. <https://digitallibrary.un.org/record/520824?ln=ru> Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, as Amended by Protocol No. 11 (1950)
3. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>
4. О.Б.Порцева. Подсудность уголовных дел. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Ижевск. 2004. – С.14.
5. Jinoyat protsessi: maxsus qism: Z.F.Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida-TDYI nashriyoti, 2008. 359 bet.
6. Очиллов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов З.З. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2021. – Б.73.
7. Уголовный процесс Республики Узбекистан. Учебник мири и Рахманкулов А. Х Кадырова. Академия МВД Республики Узбекистан 2004
8. Х.Худайбердиев. Жиноят ишларининг судловга тегишлилиги. Маърузалар тўплами. –Т.: ТДЮИ. 2013. –Б.35.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460>
10. Салимова Ирода Мамаюсуфовна Иқтисодий низоларнинг тааллуқлиги (назарий-ҳуқуқий ва процессуал жиҳатлари) Ҳуқуқий, илмий-амалий нашр. 2/2020. – Б.20.
11. <https://www.cps.gov.uk/legal-guidance/jurisdiction> official website of uk criminal jurisdiction
12. <https://www.lawyersgermany.com/a-guide-to-german-courts>
13. https://e-justice.europa.eu/content_jurisdiction-85-de-maximizeMS_EJN-en.do?member=1